

O'SPIRINLARNING KASB TANLASHGA BO'LGAN QIZIQISHLARINI ANIQLASHNING PSIXOLOGIK VAZIFALARI

G'aniyeva Jang'ila Imomovna

Qashqadaryo viloyati Koson tumani MMTB ga qarashli

32-umumiy o'rta ta'lim maktabi amaliyotchi psixologi

Annotatsiya: Bugungi kunda maktab o'quvchilarini, qobiliyat qiziqish va moyilliklarini to'g'ri tashxislab, tashxis xulosalaridan kelib chiqqan xolda ularni to'g'ri va ongli kasb tanlashlariga erishishga ko'maklashish, xalq ta'lim tizimining dolzarb masalalaridan biridir.

Kalit so'zlar: kasb tanlash muammosi, motiv, metodika, kasbhunar maorifi, kasbhunarga yo'naltirish, kasbiy maslahat, kasbni saralash, kasbga moslashish, kasbiy tarbiya.

KIRISH

O'spirinlik yoshi davridagi har bir shaxsda kasblarga, kasb tanlashga bo'lgan qiziqish, ishtiyoq va moyilliklar o'zining eng yuqori bosqichiga ko'tariladi. Bu davrda o'spirinlar psixologiyasi o'zgacha emotsionallik kasb etadi. Bu holat o'spirinlarda har qanday voqea va hodisalarga kuchli his-tuyg'u (ta'sirlanish) bilan munosabat bildirishlari, o'ta qiziquvchanlik kayfiyati, ishonuvchanlikning ortishi, axborot to'plash va uni almashishga bo'lgan ishtiyoqning ortishi, o'zi uchun nufuzli, aziz deb bilgan kishilarni ideallashtirishga bo'lgan moyillikning paydo bo'lishi kabi ehtiyojlarning keskin namoyon bo'lishi va turg'unlik kasb etishi tarzida ko'rinadi.

O'smir o'quvchilarning yuqoridagi ehtiyojlarini to'g'ri yo'nalishda va to'laqonli qondirishga erishish, o'smirlarning komil inson bo'lib yetishlari uchun ko'maklashish yo'lida qo'yilgan dastlabgi qadamdir. O'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvurga ega bo'lmaganliklari bo'sidan ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb unda qanday shaxs fazilatlarini talab qilishini tushunib yetmaydilar.

Tajribalardan ma'lumki, ko'p hollarda maktab o'quvchilari kasb tanlashga amaliy yondashishga xarakat qiladilar. Ular o'zlarining mavjud imkoniyatlarini hisobga olgan holda

u yoki bu kasbni yoqtirganligi to'g'risida ham fikr bildiradilar. Lekin tanlangan kasb kishida ma'naviy qoniqish hissini uyg'otadimi yoki yo'qmi jamiyat uchun qay darajada naf keltirishi o'quvchilar tomonidan anglanadi degan savolga javob berilgan taqdirdagina ijobiy natija berishi mumkin. Ammo shuni alohida ta'kidlab o'tish kerakki, kasbni tasodifan tanlash ba'zan o'quvchilarda og'ir ichki kechinmalar, umidsizliklar, ikkilanishlar va ruhiy ziddiyatlarni keltirib chiqaradi. Bunday har-xil munosabatlar yuz berishining asosiy sabablaridan biri maktab o'quvchilarining kasb tanlash jarayonida turli motivlarning namoyon bo'lishidir.

Motivlar o'rtasidagi kurash ularning u yoki, bu qarorga olib keladi. Voqelikka ongli munosabatda bo'lish esa o'quvchilarda ob'ektiv va qat'iy qarorni qabul qilishni keltirib chiqaradi. Shu o'rinda o'quvchining biror kasbga va fanga moyilligi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, unga intilishi, salomatligi, asab tizimi xususiyatlari va temperamenti bilan bog'liq motivlarni sanab o'tish mumkin.

Kasb tanlashning ijtimoiy jihatdan tashqari psixologik asoslari ham mavjuddir. Jumladan ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish va ularni muayyan guruhlariga ajratish;
- Kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlarini olib borish;
- O'quvchilarni kasb guruhlari, ya'ni professiogrammlar bilan tanishtirish;
- O'quvchilarning mehnat ta'limida kasbga tayyorgarligini aniqlash va unga nisbatan mehr uyg'otish;
- Diagnostik metodikalarni amaliyotga tadbiq qilish va ularni muhitga, vaziyatga moslashtirish;
- Kasb tanlash xonalarini yuksak saviyada jihozlash;
- Professional saralash ishlarini o'tkazishda konsiliumga e'tibor berish va boshqalar.

Shuning bilan birga, o'quvchilarda tug'ma layoqat, ishtiyoq, qobiliyat, istedod o'qishga, kasbga qiziqish hamda ularning barqarorligi, ularning amaliy ifodasi va yuqorida

sanab o`tilgan kasb tanlashning eng zarur jihatlari quyidagi psixologik yo`nalishlar zamidida amalga oshiriladi:

- Kasb-hunar maorifi;
- Kasb-hunarga yo`naltirish;
- Kasbiy maslahat;
- Kasbni saralash;
- Kasbga moslashish; - Kasbiy tarbiya kabilar.

Kasbiy maslahat - bu o`quvchilar shaxsining rivojlanishi, salomatligi darajasi, kasbiy qiziqishi, kasbga moyilligi, qunti, ularning aqliy taraqqiyoti ko`rsatgichining umumiy darajasi, u yoki bu kasbga nisbatan mahsus qobiliyatlari va nihoyat yigitqizlarning axloqiy qiyofasini tafsiflovchi tomonlarini o`rganishni, shuningdek, aniqlangan ma`lumotlardan kelib chiqqan holda kasbga nisbatan shaxsga yuksak saviyadagi maslahat berishni ta`minlash. Turli xususiyatli qo`llanmalar, har-xil usullardan foydalanish, natijalarni statistik qayta ishlash asosida savodli, ilmiy tavsiyalar, maslahatlar berish.

Kasb tanlashga yo`llash - pedagoglar, vrachlar, psixologlar, kasbga yo`naltiruvchi va boshqa mutaxassislarning yoshlarni ongli ravishda kasb tanlashga tayyorlashdagi maslahatlari, tushuntirishi kabi tadbirlar tizimidan iboratdir. Kasb tanlashga yo`llash o`quvchilarga turli kasblar, ularning xususiyatlari, kishidan qanday sifatlarni talab qilishni bayon qilishdir.

Kasb tanlashga yo`llashda uchta muhim jihatga e`tibor qilish zarur:

1. Birinchi jihat - xalq xo`jaligining mutaxassislarga nisbatan bo`lgan ehtiyojini hisobga olish;
2. Ikkinchi jihat - o`quvchilarga hayotda to`g`ri yo`l topishida ko`maklashish hamda yoqtirda kasb bilan shug`ullanishi uchun imkoniyat yaratish;
3. Uchinchi jihat - yoshlarga jamiyatda o`z o`rni va vazifasini egallashga yordamlashish.

Kasb tanlashga yo'llash - bu o'quvchi shaxsining ko'p qirrali tashxis uslublari yordamida o'rganishdan iborat bo'lib, ushbu jarayon so'zlardan tuzilgan testlar fazoviy tasvvurda ifodalanuvchi, topishmoqli rasmlar, kompyuterga joylashtirilgan testlar, shuningdek turli tuman ko'rinishdagi anketalar va savol varaqalari orqali amalga oshirilishi mo'ljallanadi. Bundan tashqari, amaliy tashxis toifasiga kiruvchi qator usul va uslublarini qo'llash nazarda tutiladi.

O'quvchilarni kasbiy saralash uchun, dastavval, ularning muayyan kasbga layoqati va yaroqlilik darajasini ko'rsatuvchi jismoniy hamda psixik sifatlari aniqlanadi. Natijada kasbga xos muhim fazilatlar o'quvchida qanday namoyon bo'lishi o'rganiladi, binobarin, bunday xususiyatlar o'zaro bir-biri bilan solishtiriladi. Kasbga saralashni keltirib chiqaruvchi bosh omil bu mehnat turlarining, kasb mohiyatini o'quvchilar tomonidan bir tekis egallay olmasligidir.

Maktab amaliyotining ko'rsatishicha - o'g'il-qizlar u yoki bu kasbni egallash uchun ajratilgan muddatda ko'nikmalar hosil qilish va bilimlarni o'zlashtirishni uddasidan chiqa olmaydilar. Shuning uchun ularning layoqati va kasbga yaroqliligini hisobga olish ya'ni kasbning o'quvchilardan muayyan individual-tipologik xususiyatlarni talab etishni bosh o'lchov sifatida nazarda tutish maqsadga muvofiq.

Kasbni to'g'ri tanlaganlik, tanlash me'zoni ijtimoiy sinovlar hamda shaxsiy tajribalar orqali tekishiriladi. Shu boisdan kasbning muqaddasligiga yoshlarni ishontirish ajdodlar an'analari sodiqlik hissida ularni tayyorlash-saralashning oqilligini ta'minlaydi.

Buyuk qomusiy olim sifatida barcha hadislarning mohiyatini ilmiy jihatdan ochib berishga harakat qilgan sharq mutafakkirlaridan biri Abu Ali Ibn Sinodir. Uning pedagogik-psixologik qarashlari ilmiy asosga qurilgan bo'lib, bolaning fe'l atvori va tasavvurlarini shakllantirishda umuminsoniy g'oyalar qo'llanishini yaratgan hamda murabbiy, ota-onalarga uni qattiq jazosidan ko'ra, shaxsiy ibrat orqali voyaga yetkazish ma'qulligini ko'rsatgan. Shu sababli pedagogik-psixologik va ijtimoiy xususiyatli tomonlarga quyidagicha e'tibor berish maqsadga muvofiqdir:

- O`smir o`quvchilar ehtiyojlari yo`nalishini to`g`ri idrok etish va to`g`ri tashxis qo`yish;
- Ushbu ehtiyojlari qo`yilgan tashxis xulosalariga asoslangan holda, ta`sir o`tkazishning eng muhim va kompleks tarkibini ishlab chiqish;
- Bu borada o`smir o`quvchilarga berilayotgan ko`lamini kengaytirish va sifatini oshirishga erishish;
- O`smir o`quvchilarning individual-psixologik xususiyatlarini psixodiagnostik metod va metodikalar yordamida o`rganish va tashxis qo`yish;
- O`smirlarni kasblarga bo`lgan qiziqishlari, moyilliklari, kasbiy yo`nalganliklarini maxsus psixodiagnostik metodikalar yordamida aniqlash va aniq tashxis qo`yish;
- Kasblarni o`rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo,nda qilib ifodalash;
- O`qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borish, o`qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar – maslahatlar uyushtirish, o`spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo`naltirish xususida muzokaralar olib borish;
- O`spirinlarni kasbining asosiy guruhlarini, turlari bilan yaqindan tanishtirishmuayyan kasb oldiga qo`yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilatlarini hamda kasb o`rganishning yo`llari bilan tanishtirishni tashkil qilish;
- Mehnat ta`limi darslarida o`quvchilarda dastlabgi kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr-muhabbat uyg`otish;
- Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotga tatbiq qilishga moslashtirigan turlarini ishlab chiqish;
- Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o`spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jihatidan tayyorlash kabilar.

Xalqimizda ajoyib odat bor: kishilarning bir-biri bilan tanishuvi hol-ahvol so`rashishdan, muomala maromidan boshlanib, kasb-hunar, kasb-korni aniqlash istagi bilan tugaydi. Shu boisdan har bir fuqaro, yakka shaxs oldida “Dunyoda qay ahvolda

yashadim?(hayot faoliyat izchilligi),qanday g`aroyib ishlarni (Mehnat mahsulining sifati, o`zining mangulikka dahldorligi)amalga oshirdim?”.O`z taqdirimdan xursandmanmi? Oldimda turgan vazifalarni amalga oshira oldimmi? kabi savollar tug`ilishi va muammoli vaziyatlar kelib chiqishi tabiiy hol. Shuning uchun shaxsni o`rganish chog`ida uning tarjimai holiga jiddiy e`tibor berish,u bilan puxta tanishish, qanday jamoat ishlarida qatnashganligini (status,mavqe,rol,tashkilotchilik qobiliyati to`g`risida ma`lumot olish)va shu kungacha egallab kelgan lavozimini(kasbiy layoqati,unga yaroqlilik hususiyatlarini) diqqat bilan tekshirish,u yoki bu amal kursisiga loyqligini aniqlash maqsadida uning qobiliyatlariga oqilona baho berish talab qilinadi.

Xulosa: Shu o`rinda yetuk ruhiyat bilimdoni Jaloliddin Rumiyning quyidagi ibratomuz fikrlarini keltirishni lozim deb bildik .”Sen hamma narsani unitishing mumkin,yolg`iz bir narsani - nechun dunyoga kelgansan, shuni unutmasang bas, shunda o`zini arzon sotmagaysan, illo bahoying doimo baland bo`lgay.” Ushbu jumlalarda tafakkur qiluvchilar uchun yetarli ma`no bor deb o`ylaymiz.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro`yxati:

1. Абдуллаева, Г. А. (2023). ЁШЛАР ТАРБИЯСИДАГИ САМАРАДОРЛИК–УМУМХАЛҚ ИШИДИР!. Results of National Scientific Research International Journal, 2(1), 212-222.
- 3.”Donishnoma”asaridan lavhalar”. Sharq yulduzi “3-son,Abu Ali Ibn Sino.
4. E.G`oziyev,B.Xasanov. Psixologiya muammolari. Toshkent-Universiteti-1999-yil.
5. Internet materiallari